



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	



RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrasida katta o'qituvchisi
[ORCID: 0009-0004-0329-7687](https://orcid.org/0009-0004-0329-7687)

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida raqamli banklarning resurs bazasini optimallashtirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida depozitlar barqarorligini ta'minlashning innovatsion mexanizmlari, operatsion va personal xarajatlarning optimal mezonlari (benchmark), shuningdek aktiv-passivlarni boshqarishning zamonaviy uslubiyoti asoslab berilgan. Xususan, O'zmilliybank AJ, Anor Bank AJ va Open Bank AJ kabi banklarning 2020–2024-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili asosida raqamli biznes model samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan kapitalning likvidli aktivlarga mobilizatsiya darajasi va xarajatlarni jilovlash bo'yicha taklif etilgan normativlar bank barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli bank, resurs bazasi, optimallashtirish, barqaror qoldiq, operatsion xarajatlar, personal xarajatlar, likvidli aktivlar, bank kapitali, mobilizatsiya darajasi.

Abstract. This article examines the opportunities for optimizing the resource base of digital banks in the context of digital transformation. The study substantiates innovative mechanisms for ensuring deposit stability, optimal benchmarks for operational and personnel costs, and modern approaches to asset-liability management. In particular, based on the analysis of financial indicators of O'zmilliybank AJ, Anor Bank AJ, and Open Bank AJ for 2020–2024, scientific recommendations were developed to enhance the efficiency of digital business models. The proposed standards for capital mobilization into liquid assets and cost control contribute to strengthening banking stability.

Key words: digital bank, resource base, optimization, stable balance, operational costs, personnel costs, liquid assets, bank capital, mobilization level.

Аннотация. В данной статье исследуются возможности оптимизации ресурсной базы цифровых банков в условиях цифровой трансформации. В ходе исследования обоснованы инновационные механизмы обеспечения стабильности депозитов, оптимальные параметры операционных и персональных расходов (benchmark), а также современные подходы к управлению активами и пассивами. В частности, на основе анализа финансовых показателей O'zmilliybank AJ, Anor Bank AJ и Open Bank AJ за 2020–2024 годы разработаны научные рекомендации по повышению эффективности цифровой бизнес-модели. Предложенные автором нормативы по мобилизации капитала в ликвидные активы и сдерживанию затрат способствуют обеспечению устойчивости банковской системы.

Ключевые слова: цифровой банк, ресурсная база, оптимизация, стабильный остаток, операционные расходы, персональные расходы, ликвидные активы, банковский капитал, уровень мобилизации.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining raqamlashuvi moliya sektorida fundamental transformatsiyalarni keltirib chiqardi. Bugungi kunda an'anaviy bank xizmatlari o'rnini egallayotgan "neobank" va "digital bank" konsepsiyalari moliya bozorida raqobatbardoshlikning asosiy drayveriga aylandi. Statista ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil yakuniga kelib jahon miqyosida raqamli banklarning sof foizli daromadi 1,66 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Biroq,



raqamli banklarning tezkor o'sishi ularning resurs bazasi barqarorligini ta'minlash va xarajatlar strukturasi optimallashtirish bilan bog'liq yangi ekonometrik muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Xalqaro amaliyotda raqamli banklar resurs bazasini shakllantirishda asosan tranzaksion depozitlarga tayanadi, bu esa likvidlik riskini oshiradi. Shu sababli, Basel Committee on Banking Supervision standartlari va xalqaro moliya institutlari — International Monetary Fund hamda World Bank — tomonidan bank resurslarini diversifikatsiya qilish va operatsion samaradorlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xarajatlarni boshqarish (Cost-to-Income Ratio) va aktiv-passivlarni boshqarish (ALM) metodologiyasini raqamli muhitga moslashtirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish belgilangan. 2024–2026-yillar davomida mamlakatimizda raqamli bank xizmatlari infratuzilmasi va foydalanuvchilar soni keskin o'sib bormoqda, bu esa mahalliy banklar uchun resurs bazasini optimallashtirishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Ilmiy ishimizning maqsadi — raqamli banklarda depozitlar barqarorligini ta'minlash, operatsion va personal xarajatlarni optimal darajada saqlash hamda aktiv-passivlarni boshqarishning zamonaviy usullarini taklif etish orqali resurs bazasi samaradorligini oshirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlarning yondashuvlari. Raqamli bank ishi (digital banking) va neobanklar konsepsiyasining nazariy asoslari Brett King, Chris Skinner va boshqa g'arb olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, B. King "bank tizimining to'rtinchi avlodi (Bank 4.0) sharoitida an'anaviy resurs jalb qilish usullari o'z ahamiyatini yo'qotishi va asosiy urg'u mijozlarning kundalik raqamli ehtiyojlariga integratsiyalashgan tranzaksion depozitlarga qaratilishini" ta'kidlaydi. Jonathan Scholnick va Timothy Sullivan kabi tadqiqotchilar "raqamli banklarda 'mass liabilities' (ommaviy majburiyatlar) barqarorligini ta'minlashda foiz stavkalaridan ko'ra, platformaning texnologik qulayligi va xizmatlar ekotizimi muhimroq rol o'ynashini" asoslab berganlar. Shuningdek, xalqaro ekspertlar Robert Hammer va Manuel Cuesta "operatsion xarajatlarni optimallashtirishda xodimlarga yo'naltirilgan xarajatlar ulushini kamaytirish (cost efficiency) raqamli biznes-modelning hayotiyiligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkich ekanligini" qayd etadilar.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari. O'zbekiston iqtisodiy sharoitida bank tizimi transformatsiyasi va resurs bazasini mustahkamlash masalalari Sh. Abdullaeva, U. Azizov, F. Islomov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Sh. Abdullaeva o'z tadqiqotlarida "tijorat banklari likvidligini boshqarishda passivlar tarkibini diversifikatsiya qilish va ularning muddatli tuzilmasini takomillashtirish zarurligini" ta'kidlaydi. U. Azizov esa "banklarda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tranzaksion xarajatlarni pasaytirish va shu orqali resurs bazasi tannarxini optimallashtirish imkoniyatlarini" ko'rsatib bergan. Biroq, mahalliy adabiyotlarda aynan raqamli banklar uchun xarajatlar normativlari (1–3% va 30–40%) hamda kapitalning likvidlikka mobilizatsiya darajasi bo'yicha aniq miqdoriy tavsiyalar hali to'liq shakllanmagan.

Muallif yondashuvi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar yoki faqat texnologik transformatsiyaga, yoki faqat an'anaviy ALM (aktiv-passivlarni boshqarish) metodlariga qaratilgan. Muallifning fikricha, raqamli banklar resurs bazasini optimallashtirishda "gibrid resurs barqarorligi" modelidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda depozitlar qisman yechish huquqi bilan birga "shartli barqaror qoldiq" (minimal reserve requirement at account level) mexanizmiga ega bo'lishi, operatsion samaradorlik esa xodimlar xarajatining 40 foizlik chegarasi bilan cheklanishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy iqtisodiy benchmarking va moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili usullari qo'llanildi. Bunda raqamli banklarning resurs bazasi samaradorligini baholash uchun O'zmilliybank AJ, Anor Bank AJ va Open Bank AJ kabi muassasalarning 2020–2024-yillardagi audit qilingan (IFRS) moliyaviy hisobotlari, shuningdek aktiv va passivlarni boshqarishning taqsimlangan manbalar metodi (pool of funds approach) empirik axborot bazasi hamda asosiy tahlil uslubiyoti sifatida xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli banklarda mijozlar mablag'larining harakatlanish tezligi an'anaviy banklarga qaraganda 3–4 barobar yuqori. Shu sababli, resurs bazasini optimallashtirishning birinchi yo'nalishi sifatida minimal qoldiq talabi bilan qisman yechib olish imkoniyatiga ega depozit turlarini joriy etish taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval. An'anaviy va taklif etilayotgan optimallashtirilgan depozit turlarining qiyosiy tavsifi¹

Tahlil ko'rsatkichlari	An'anaviy raqamli depozitlar (Mavjud holat)	Optimallashtirilgan raqamli depozitlar (Taklif etilmoqda)	Bank uchun iqtisodiy samarasi
Mablag'larning harakatlanish tezligi	Yuqori (3-4 barobar tezroq)	Boshqariluvchi (O'rtacha)	Likvidlik riskining kamayishi
Minimal qoldiq talabi	Mavjud emas	Majburiy (masalan, 20-30% miqdorida)	Barqaror resurs bazasini shakllantirish
Mablag'larni yechib olish	Istalgan vaqtda (to'liq)	Minimal qoldiqni saqlagan holda qisman	"Bank run" (omnat ko'chishi) xavfini oldini olish
Resursning barqarorlik darajasi	10-15% gacha	40-60% gacha	Uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish imkoniyati
Foiz stavkasi siyosati	Standart bozor stavkasi	Minimal qoldiq uchun yuqori, qolgan qism uchun o'zgaruvchan	Resurs tannarxini tabaqalashtirish

Bu mexanizm bankka mijoz mablag'ining ma'lum bir qismini (20–30%) "barqaror qoldiq" (core deposits) sifatida uzoq muddatli aktivlarga joylashtirish imkonini beradi. Natijada bankning likvidlik bilan bog'liq noaniqliklari kamayadi va depozit bazasining barqarorligi ta'minlanadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida operatsion xarajatlarning aktivlarga nisbati, (mlrd so'mda)²

Ko'rsatkichlar	31.12.2020	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Aktivlar	366 121,1	444 922,5	556 746,3	652 157,1	769 330,4
Operatsion xarajatlar	8 145	10 998	14 877	19 563	23 715
Operatsion xarajatlarning aktivlarga nisbati, %da	2,23	2,47	2,67	3,00	3,08

O'zbekiston bank tizimining 2020–2024-yillardagi statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, banklar aktivlarining o'sishiga mutanosib ravishda operatsion xarajatlarning ulushi ham ortib bormoqda (2,23 foizdan 3,08 foizga). An'anaviy banklarda infratuzilma va filiallarni saqlash xarajatlari ushbu ko'rsatkichni yuqori darajada saqlab turadi.

Shundan kelib chiqib, raqamli banklarning resurs bazasini optimallashtirish va samaradorligini ta'minlash maqsadida operatsion xarajatlarning aktivlarga nisbatini 1–3 foiz darajasida targetlash taklif etiladi. Mazkur ko'rsatkichga erishish raqamli banklar uchun nafaqat rentabellikni oshirish, balki an'anaviy banklarga nisbatan yuqori foiz marjasini saqlab qolish hamda raqobatbardosh resurs bazasini shakllantirish imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval. "Open bank" AJ operatsion xarajatlari samaradorligining aktivlar hajmiga nisbatan tahlili, (mlrd so'mda)³

Yil	Aktivlar	Operatsion xarajatlar	Operatsion xarajatlar / aktivlar, %
31.12.2023	219,32	17,55	8
31.12.2024	651,09	30,6	4,7

Raqamli bank faoliyatini shakllantirish bosqichida operatsion xarajatlarning yuqori bo'lishi tabiiy holat bo'lib, bu Open Bank AJ misolida 2023-yilda 8,0 foizni tashkil etgan. Biroq, bank aktivlarining 3 barobarga o'sishi fonida ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 4,7 foizga tushganligi raqamli biznes modelning miqyos iqtisodiyoti (economies of scale) tamoyili asosida samaradorlikka erishayotganini ko'rsatadi.

Muallif tomonidan ilgari surilgan operatsion xarajatlarning aktivlarga nisbatini 1–3 foiz darajasida ta'minlash taklifi raqamli banklarning yetuklik (maturity) bosqichida resurs bazasidan foydalanish samaradorligini yuqori darajaga olib chiqish imkonini beruvchi strategik target hisoblanadi (4-jadval).

1 Tijorat banklarining web sayti ma'lumotlariga tayangan holda muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

3 <https://www.openbank.uz/about/investors> - "Open bank" AJning moliyaviy hisobotlaridan kelib chiqib muallif tomonidan tayyorlandi.

4-jadval. “Anor Bank” AJda operatsion daromadlar va personal xarajatlar nisbati, (mlrd soʻmda)⁴

Yil	Operatsion daromadlar	Personal xarajatlar	Personal xarajatlar / operatsion daromadlar, %
31.12.2020	3,4	3,4	100,0
31.12.2021	70,1	41,7	59,5
31.12.2022	236,1	103,7	43,9
31.12.2023	513,5	146,8	28,6
31.12.2024	772,5	233,6	30,2

Raqamli bankning biznes modeli inson omiliga tayanish darajasining pastligi bilan anʼanaviy banklardan ajralib turadi; buni Anor Bank AJ faoliyati dinamikasi yaqqol tasdiqlaydi. 2020–2021-yillardagi shakllanish bosqichida personal xarajatlarning daromadga nisbati yuqori (100 foizdan 59,5 foizgacha) boʻlgan boʻlsa, bankning operatsion quvvati oshishi bilan 2023–2024-yillarda bu koʻrsatkich 28,6–30,2 foiz oraligʻida barqarorlashgan.

Mazkur tendensiya muallif tomonidan taklif etilgan personal xarajatlarning operatsion daromadlarga nisbatini 30–40 foiz darajasida taʼminlash haqidagi ilmiy taklifning amaliy asoslanganligini koʻrsatadi. Ushbu koʻrsatkich raqamli banklarda mehnat unumdorligi va resurslardan foydalanish samaradorligini oʻlchovchi benchmark boʻlib xizmat qiladi (5-jadval).

5-jadval. “Oʻzmilliybank” AJda bank kapitalining likvidli aktivlarga mobilizatsiya darajasi tahlili

Koʻrsatkichlar	31.12.2022 (mlrd soʻm)	31.12.2023 (mlrd soʻm)	31.12.2024 (mlrd soʻm)
Likvidli aktivlar (Pul mablagʻlari va ularning ekvivalentlari)	24 446	14 377	18 422
Jami kapital	16 420	18 486	20 046
Kapitalning likvidli aktivlarga mobilizatsiya darajasi, %	148,8%	77,7%	91,9%

Oʻzmilliybank AJning 2022–2024-yillardagi moliyaviy holati tahlili shuni koʻrsatadiki, bank kapitalining likvidli aktivlarga mobilizatsiya darajasi juda yuqori (91,9 foizgacha) boʻlib, bu likvidlilik va rentabellik oʻrtasidagi nomutanosiblikni, yaʼni resurslarning katta qismi daromad keltirmaydigan shaklda saqlanayotganini koʻrsatadi.

Muallif tomonidan ilgari surilgan “bank kapitalining kamida 10 foizini yuqori likvidli aktivlarga mobilizatsiya qilish” standarti aynan shu boy berilgan imkoniyatlar bilan bogʻliq noaniqliklarni kamaytirishga qaratilgan boʻlib, raqamli transformatsiya sharoitida ortiqcha likvid mablagʻlarni yuqori texnologik va daromadli operatsiyalarga yoʻnaltirish orqali resurs bazasi samaradorligini oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli banklar resurs bazasini optimallashtirish imkoniyatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi:

1. Resurslar barqarorligini taʼminlash. Raqamli muhitda mablagʻlarning yuqori harakatlanuvchanligini inobatga olgan holda, depozitlar tarkibini optimallashtirish uchun minimal qoldiq talabi bilan qisman yechib olish imkoniyatiga ega depozit turlarini joriy etish lozim. Bu mexanizm bankka resurslarning kamida 40–60 foizini barqaror qoldiqqa aylantirish va likvidlik bilan bogʻliq noaniqliklarni samarali boshqarish imkonini beradi.

2. Operatsion samaradorlik benchmarklari. Tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, raqamli banklarning barqaror rivojlanishi uchun operatsion xarajatlarning aktivlarga nisbatini 1–3 foiz darajasida saqlash strategik ahamiyatga ega. Open Bank AJ misolida ushbu koʻrsatkichning 8,0 foizdan 4,7 foizga tushishi raqamli biznes modelning miqyos iqtisodiyoti orqali rentabellikka erishayotganini koʻrsatadi.

3. Inson resurslari optimalligi. Raqamli banklarda personal xarajatlarning operatsion daromadlarga nisbati 30–40 foiz oraligʻida boʻlishi mehnat unumdorligining optimal darajasi hisoblanadi. Anor Bank AJ tajribasi ushbu koʻrsatkichning 28,6–30,2 foiz darajasida barqarorlashganini koʻrsatib, muallif taklifining amaliy asoslanganligini tasdiqlaydi.

4. Likvidlik va kapital mutanosibligi. Aktiv va passivlarni boshqarishning taqsimlangan manbalar metodiga koʻra, bank kapitalining kamida 10 foizini yuqori likvid aktivlarga mobilizatsiya qilish minimal xavfsizlik standarti

4 <https://anorbank.uz/uz/about/investors/> - “ANOR BANK” AJning moliyaviy koʻrsatkichlaridan kelib chiqib muallif tomonidan tayyorlandi.



sifatida taklif etiladi. O'zmilliybank AJ tahlili shuni ko'rsatdiki, likvid aktivlarning kapitalga nisbati juda yuqori (91,9 foizgacha) bo'lishi bankning to'lov qobiliyatini ta'minlaydi, biroq daromad keltirmaydigan resurslar ulushining ortishiga olib keladi. Shu sababli ortiqcha likvidlikni daromadli aktivlarga qayta taqsimlash orqali resurs bazasi samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, taklif etilayotgan ushbu metodologik yondashuvlar O'zbekistonning raqamli bank sektori uchun resurs bazasini sifatli shakllantirish, xarajatlarni jilovlash va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. O'zmilliybank AJ (2024). Consolidated Financial Statements for the Year Ended 31 December 2023 and Independent Auditor's Report. Toshkent.
3. O'zmilliybank AJ (2025). Consolidated Financial Statements for the Year Ended 31 December 2024 and Independent Auditor's Report. Toshkent.
4. Sh. Z. Abdullaeva (2017). Bank ishi: darslik. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
5. U. A. Azizov (2021). Tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayonlarini boshqarish (iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: BMA.
6. Brett King (2019). Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. London: John Wiley & Sons.
7. Jonathan Scholnick, & Timothy Sullivan (2022). Digital banking and the evolution of liabilities. *Journal of Financial Transformation*, 54, 12–28.
8. Robert Hammer, & Manuel Cuesta (2023). Operational efficiency in fintech and neobanks: A comparative analysis. *International Journal of Banking and Finance*, 19(1), 88–105.
9. Statista (2024). Number of digital banking users worldwide 2020–2026. Digital Market Outlook.
10. Anor Bank AJ (2020–2024). Audit qilingan moliyaviy hisobotlar ma'lumotlari. Available at: anorbank.uz
11. Open Bank AJ (2023–2024). Audit qilingan moliyaviy hisobotlar ma'lumotlari. Available at: openbank.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2020–2024). Statistik byulletenlar ma'lumotlari. Available at: cbu.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
